

“ALKIMYOGAR” ASARIDAGI TUSH TASVIRINING ASAR SYUJETIDAGI MOHIYATI

Boltayeva Shahnoza

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti
magistranti*

f.f.f.d professor (phd) Istamova Shoxida Maxsudovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Paolo Koeloning dunyoga mashhur falsafiy asari- " Alkimyogar" dagi tush tasvirining asar syujeti va voqealar rivojiga shuningdek inson taqdiridagi o'rni va ahamiyati to'g'risida mulohaza yuritilgan. Tushning orzu-umidlar ro'yobi uchun asosiy vosita ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ramz, orzu-istak, hikmatlar toshi, syujet, obraz, tasavvur, xazina, motiv.

Kirish: Adabiyotshunoslikda tush motivining ahamiyati juda katta. Tush obrazlari qadimiy mifologiyadan tortib hozirgi zamon badiiy adbiyotiga qadar turli shakllarda namoyon bo'lib kelmoqda. Sharq mumtoz adabiyotida tush ko'rish ko'pincha bashorat, ilohiy ishora sifatida talqin qilingan bo'lsa, G'arb adabiyotida ham u qahramonning ichki dunyosi, orzu va umidlarini ifodalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Paolo Koeloning "Alkimyogar" romani ham ana shunday badiiy uslubning yorqin na'munasi bo'lib, unda tush motivi asarning badiiy g'oyasini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Romanning boshidan oxirigacha qahramonning hayoti aynan tush motivi bilan bog'langan. Shu bois ushbu maqolada "Alkimyogar" asaridagi tush motivining asar syujetidagi o'rni va uning g'oyaviy-falsafiy talqini tahlil qilinadi.

Syujet qurilishi nuqtayi nazaridan "Alkimyogar"ning eng diqqatga sazovor jihati - u oddiy hayotiy voqelikdan emas, balki tush orqali boshlanishidir. Santyago- Andalusiya dashtlarida yashovchi oddiy cho'pon yigit. Uning hayoti qo'y boqish, sayohat qilish va yangi odamlar bilan tanishish kabi oddiy mashg'ulotlardan iborat edi. Ammo bir kuni u takror-takror ko'rgan tushini eslab qoladi. Tushida u Misr piramidalari yonida ko'milgan xazinani topadi. Bu tush qahramon hayotida tub burilish yasaydi. U tushini donishmandlarga sharhlatadi va "tushingda ko'rgan narsani izlash" zarurligini bilib oladi. Shu tariqa Santyago o'z "Shaxsiy afsona"sini izlash uchun uzoq safarga chiqadi. Demak tush motivi syujetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida romanning boshlanish nuqtasini belgilaydi.

Santyagoning safar jarayonida tush unga yo'l ko'rsatuvchi timsol sifatida namoyon bo'ladi. Asarda tush nafaqat mpddiy xazina , balki qahramonning ichki orzu va

intilishlarining ifodasi bo'lib xizmat qiladi. Santyago dastlab moddiy boylikni izlagandek ko'rinadi, lekin safar davomida u ko'proq ma'naviy tajriba, donishmandlik, ruhiy kamolotga erishadi. Ahunday qilib tush motivi qahramonning ruhiy olamining rivojlanishi va shakllanishini ifodalaydi. Koeloning g'oyasiga ko'ra, inson tushlarini tinglashi, ulardan hayotiy ishoralar sifatida foydalanishi kerak. Tush- bu ichki ovoz, qalbning signali. Santyago ham shu ovozga quloq tutgani uchun haqiqiy baxtni topadi. Syujet rivojida qahramon ko'plab sinovlardan o'tadi, u aldangan, yo'lini yo'qotgan, sevgisini topgan va yana ayrilgan. Ammo barcha sinovlar uni yanada chiniqtiradi. Barcha qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib Santyago oxir-oqibat Misrga yetib boradi va tushida ko'rgan joyini topadi. U aynan o'sha piramida yonini qaziydi ammo hech narsa topolmaydi. Shunda unga tush orqali yana bir ishora beriladi, asl xazina uning o'z yurtida bir paytlar qo'ylarini yotqizadigan cherkov vayronasida ekan. Bu voqea orqali muallif chuqur falsafiy xulosa yuritadi. Inson ko'pincha o'z baxtini uzoqdan qidiradi, biroq aslida u uning yuragiga yaqin joyda bo'ladi. Tush motivi shu taqriqa syujetni yakunlabgina qolmay uni badiiy mazmun bilan boyitadi.

Paolo Koelo "Alkimyogar" orqali inson hayotidagi orzu va intilishlarning naqadar muhimligini ko'rsatadi. U "Shaxsiy afsona" tushunchasini ilgari suradi. Har bir inson o'z taqdirini topishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu taqdirga eltuvchi ishoralar esa ko'pincha tushlarda, qalb sezgilarida yashiringan bo'ladi. Demak tush motivi nafaqat syujetni haralkatantitadi, balki muallifning falsafiy qarashlarini ifoda etuvchi asosiy ramz sifatida xizmat qiladi.

Tush motivining bunday talqini adabiyotda yangi emas. Masalan, sharq adabiyotida Alisher Navoiy, G'arbda esa Gyote, Shekspir asarlarida ham tush orqali qahramon taqdirini bashorat qilish an'anasi mavjud. Ammo Koeloning yondashuvi ularning barchasidan farqlanadi. U tushni bashorat emas, balki orzu va intilishlar manbai sifatida talqin qiladi. Demak, Koelo ijodida tush motivi mistik ramz emas, balki hayotiy tajriba, ruhiy kamolot va maqsad sari intilishning poetik timsoliga aylanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, "Alkimyogar" romanida tush motivi syujetning boshlanishidan yakunigacha qahramon hayotini belgilovchi markaziy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tush:

- qahramonni safarga undaydi;
- uning ichki dunyosini ochadi;
- yakunda falsafiy xulosa chiqarishga olib keladi;
- muallifning inson haqidagi qarashlarini igodalaydi.

Shu bois ushbu asarda tush motivi inson orzulari, ichki ovozi va ma'naviy kamolotining badiiy ramzi sifatida talqin etilgan. Poelo Koelo o'z asari orqali "inson o'z tushlariga quloq tutsin, chunki ular uni taqdiriga yetaklaydi" degan g'oyani ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulaymonovich, S. F., & Maqsudovna, I. S. (2020). Types of lexical meanings. Journal of Critical Reviews, 7(6), 481-484.
2. Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 209-213.
3. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (KAHOOT, EDUCAPLAY KABI PLOTFORMALAR MISOLIDA). PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 177-180.
4. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова Шохида Махсудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 16-19.4.
5. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG 'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 184-186.
6. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). LUG'AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI. PEDAGOG, 7(6), 186-189.
7. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
8. Makhsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.
9. Истамова, Ш. М. *Поэтико-композиционные функции сна в художественном произведении* (Doctoral dissertation, (PhD) по филологии: 10.00. 02/Истамова Шохида Махсудовна).
10. Истамова, Ш. М. СНОВИДЕНИЯ И СИМВОЛ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. *Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума*, 72.
11. Истамова, Ш. М., & Шарипова, М. Б. (2024). ЛИТЕРОНОМИК ТАЖНИС САНЪАТИ АЛИШЕР НАВОИЙ ИЖОДИДА. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 1072-1075.
12. Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши ШМ Истамова - Новое слово в науке и практике: гипотезы и ..., 2017